

**PEDAGOGNING DARS VAQTINI SAMARALI BOSHQARISHNING
METODIK ASOSLARI**

Raxmatova Moxinur Shovkat qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, 2 kurs

pedagoika yonalishi magistranti

mohinurrahmatova71@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada pedagogning dars vaqtini samarali boshqarishning metodik asoslari, muhimlik tartibida muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni birinchi o'ringa qo'yish shartlari, darsning har bir bosqichida o'quv-uslubiy ishlarning shakllarini rejalashtirish, davlat Ta'lim Standartlari (DTS) talablariga moslik, kognitiv murakkablik darajasi, Mantiqiy izchillik, Qoidalar va qonuniyatlarning ustuvorligiga oid mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Darsning maqsadi, dars ishlanmasi, didaktik bosqichlar, kognitiv murakkablik, o'quv-uslubiy shakllar, muhimlik, Davlat Ta'lim Standartlari (DTS), moslik, kognitiv murakkablik, mantiqiy izchillik, qoidalar.

Annotasiya. В данной статье представлены методические основы эффективного управления временем, отведенным учителем на урок, условия расстановки приоритетов в порядке важности, планирование форм учебно-методической работы на каждом этапе урока, соответствие требованиям Государственных образовательных стандартов (ГОС), уровень познавательной сложности, логическая последовательность, а также соображения относительно приоритета правил и законов.

Ключевые слова. Цель урока, разработка урока, дидактические этапы, когнитивная сложность, образовательные и методические формы, важность, государственные образовательные стандарты (ГОС), актуальность, когнитивная сложность, логическая последовательность, правила.

Annotasion. This article presents methodological foundations for effective management of a teacher's lesson time, conditions for prioritizing important things in order of importance, planning forms of educational and methodological work at each stage of the lesson, compliance with the requirements of the State Educational Standards (SES), level of cognitive complexity, logical consistency, and considerations regarding the priority of rules and laws.

Key words. Lesson objective, lesson development, didactic stages, cognitive complexity, educational and methodological forms, importance, State Educational Standards (SES), relevance, cognitive complexity, logical consistency, rules.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni, balki darsning har bir daqiqasini aniq hisob-kitob qilishni va metodik jihatdan to'g'ri rejalashtirishni talab etadi. Ko'p hollarda dars vaqti yetishmasligi yoki o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtira olmasligi o'qituvchining vazifalarni muhimlik

darajasiga ko'ra taqsimlay olmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv materialining eng muhim nuqtalarini ajratib olish va dars bosqichlariga mos shakllarni tanlash pedagogik mahoratning bosh mezonidir.

Darsni loyihalashtirishda o'qituvchi o'quv materialining qaysi qismi hayotiy yoki kelgusi mavzular uchun poydevor ekanligini belgilab olishi lozim. Bu jarayon xuddi me'mor binoning asosiy poydevorini chizayotganiga o'xshaydi — agarda poydevor noto'g'ri qo'yilsa, butun bino qulab tushishi mumkin. Shuning uchun dars jarayonida hamma ma'lumotga bir xil vaqt ajratib bo'lmaydi.

O'qituvchi darsdagi vazifalarni muhimlik tartibida birinchi o'ringa qo'yishda quyidagi to'rtta didaktik shartga tayanishi va ularni kengaytirilgan holda tushunishi shart:

1. Davlat Ta'lim Standartlari (DTS) talablariga moslik. Har bir darsning eng oliy qoidasi - o'quvchiga ortiqcha yuklama bermasdan, davlat tomonidan belgilangan minimal talablarni bajarishdir. Birinchi o'ringa dars oxirida o'quvchi albatta egallashi shart bo'lgan minimal bilim va ko'nikmalar (tayanch kompetensiyalar) qo'yiladi. Ya'ni, o'quvchi darsdan chiqib ketayotganda, mavzuning ikkinchi darajali qismlarini eslay olmasa ham, mana shu "yadro" bilimlarni hayotda qo'llay olishi shart. Matematika fani misolida ko'radigan bo'lsak, O'qituvchi "Foizlar" mavzusini o'tayotgan bo'lsa, dars oxirida o'quvchi foiz hisoblash formulasini shunchaki yoddan aytib berishi yetarli emas. DTS talabi bo'yicha u hayotda do'konga borganida 20 foizli chegirma mahsulot narxini qanchaga tushirishini mustaqil hisoblay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu uning moliyaviy savodxonlik kompetensiyasini shakllantiradi.

2. Kognitiv murakkablik darajasi. Inson miyasi va diqqati dars davomida bir xil faollikda ishlamaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, darsning dastlabki 5-10 daqiqasida miya endi isinadi, oxirgi 10 daqiqada esa charchaydi. Shuning uchun darsning eng og'ir, chuqur tahlil va intellektual faollik talab qiladigan qismlari darsning o'rtasiga — o'quvchilar diqqat-e'tibori eng yuqori cho'qqiga chiqqan paytga rejalashtirilishi shart. Ona tili va adabiyot fani misolida ko'rsak darsning boshida o'qituvchi o'quvchilar bilan qisqa salomlashib, qiziqarli savol-javob qiladi ya'ni bu bosqichda miyani tayyorlash amalga oshiriladi. Darsning 15-35 daqiqalari oralig'ida o'quvchining diqqat cho'qqisidan foydalanib mavzuning eng og'ir qismi bo'lgan "Morfologik tahlil qoidalari" yoki murakkab gap turlari tushuntiriladi. Dars oxirida miya charchagan paytda esa yangi qoida o'tilmaydi, balki o'yinlar yoki kichik testlar orqali mavzu shunchaki mustahkamlanadi.

3. Mantiqiy izchillik. Ta'limda sakrab o'tish mumkin emas. Har qanday yangi bilim eski poydevor ustiga quriladi. Eng muhim tushunchalar avvalgi o'tilgan tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda berilishi va murakkabroq mavzularga yo'l ochishi shart. Agar o'qituvchi zanjirning birinchi halqasini mustahkamlamasdan ikkinchisiga o'tsa, o'quvchining mantiqiy fikrlashi uzilib qoladi. Kimyo fani misolida ko'rsak, o'qituvchi o'quvchilarga murakkab "Kimyoviy reaksiyalar tenglamalarini tuzish"ni o'rgatishdan oldin, ularga moddalarning valentligi va davriy jadvaldagi elementlar xossalari mukammal tushuntirgan bo'lishi shart. Valentlikni tushunmagan o'quvchi hech qachon reaksiyani to'g'ri tenglashtira olmaydi. Ya'ni, avval poydevor (valentlik), keyin bino (reaksiya) quriladi.

4. Qoidalar va qonuniyatlarning ustuvorligi. Zamonaviy darslarda o'quvchilarga ko'plab mashqlar yoki misollar ishlatiladi. Biroq faqat amaliyot bilan cheklanish yuzaki bilimga olib keladi. Amaliy mashg'ulotlar yoki misollardan ko'ra, o'sha fanning fundamental qoidalari, teoremlari yoki terminlarining mazmunini tushunishga ko'proq urg'u berilishi lozim. Agar o'quvchi qoidaning tub mohiyatini ya'ni nima uchun shunday ekanligini tushunsa, u har qanday yangi misolni o'zi mustaqil yecha oladi. Fizika fani misolida o'qituvchi Nyutonning qonunlariga doir 20 ta masala yechib berishidan ko'ra, darsda 15 daqiqa vaqt ajratib "Inersiya" qonunining tub mohiyatini o'quvchi ongiga singdirishi muhimroq. Masalan, u nega avtobus to'satdan to'xtaganda odamlar oldinga qarab ketib qolishini fundamental qonuniyat asosida tushunsa, hayotda duch keladigan barcha mexanik harakatlarni o'zi tahlil qila oladi.

Standart dars o'zining mantiqiy tugal bosqichlariga ega. Har bir bosqichda qo'llaniladigan uslubiy shakllar o'ziga xos maqsadlarga xizmat qiladi:

1. Tashkiliy va motivatsiya bosqichi (1-5 daqiqa). O'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish va qiziqish uyg'otish. Uslubiy shakllar jamoaviy suhbat, qisqa keyslar yoki krossvordlar bo'lishi mumkin. Tavsiya etiladigan metodlar "Interaktiv boshqotirma" yoki "Kross-savollar". Bu bosqichda o'quvchi dars mazmunini hayot bilan bog'liqligini ko'ra olishi kerak.

2. Uy vazifasini va o'tilgan mavzuni takrorlash bosqichi (5-10 daqiqa). Yangi mavzuni o'zlashtirish uchun poydevor yaratish. Individual so'rovnomalar, juftliklarda o'zaro tekshirish, test sinovlari kabi metodlardan foydalanish mumkin. "Sinkveyn" yoki "Pinbord" kabilarni qo'llash o'quvchilarni o'zlashtirilgan bilimlarni tez esga tushirishga o'rgatadi.

3. Yangi mavzuni bayon qilish bosqichi (15-20 daqiqa). Yangi axborot va tushunchalarni o'quvchilarga yetkazish. Muammoli ma'ruza, videoroliklar tahlili, darslik ustida ishlash kabi uslubiy shakllardan foydalanish mumkin. Tavsiya etiladigan metodlar misol uchun "Feynman usuli" - o'qituvchi murakkab narsalarni sodda tilda tushuntiradi, yoki "Klaster". Bu bosqichda o'qituvchi asosiy vaqtni egallashi emas, balki o'quvchilarni tahliliy fikrlashga undashi lozim.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash bosqichi (10-15 daqiqa). Nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirish. Kichik guruhlarda ishlash, loyihaviy topshiriqlar, laboratoriya mashqlari kabi uslubiy shakllardan foydalanish mumkin. Tavsiya etiladigan metodlar "Aqliy hujum", "FSMU" yoki "Bumerang" va boshqalar bo'lishi mumkin. O'quvchilar ushbu bosqichda hamkorlikda ta'lim orqali mustaqil fikrlashadi.

5. Darsni yakunlash, baholash va qayta aloqa (Refleksiya) (3-5 daqiqa). Dars maqsadlariga qanchalik erishilganini aniqlash va o'quvchilarni rag'batlantirish. O'z-o'zini baholash varaqalari, qisqa og'zaki xulosalar kabi uslubiy shakllar tavsiya etiladi. Tavsiya etiladigan metodlar "Insert" yoki "3-2-1" usuli Bugun bilib olgan 3 ta ma'lumot, qiziq bo'lgan 2 ta holat, menga qiyin bo'lgan 1 ta savol.

Darsni to'g'ri loyihalashtirish o'qituvchining asosiy qurolidir. Muhim tushunchalarni aniqlab, ularni birinchi o'ringa qo'yish hamda darsning har bir didaktik bosqichida maqsadga mos o'quv-uslubiy shakllarni qo'llash dars samarasini bir necha barobar

oshiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat fanga doir bilimlarni, balki mustaqil tahlil qilish va hayotda qo'llay olish kabi muhim ko'nikmalarni ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida: [2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son]. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: [2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son]. – Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz>
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Abduqodirov A. Jadidlar ma'naviy merosida ta'lim-tarbiya masalalari. – Toshkent: Universitet, 2018. – 180 b.
6. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 112 b.
7. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. I jild. – Toshkent: Fan, 1981. – 464 b.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
9. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968. – 488 b.
10. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 260 b.
11. Allen D. Getting Things Done: The Art of Stress-Free Productivity. – New York: Viking, 2001. – 267 p.

Elektron resurslar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>
2. Gleb Arkhangelsky Time Management School. <https://tmliga.ru>
3. Google Scholar. <https://scholar.google.com>.
4. <https://www.ipsos.com>
5. <https://scientists.uz>
6. <https://cyberleninka.ru>
7. <https://zamin.uz>